



BUGUN ZO'RAVONLIK KO'RGAN BOLA ERTAGA ZO'RAVONLIK QILADIGAN OTA, ONA, O'QITUVCHI, TARBIIYACHI VA HOKAZO...

Bugungi zo'ravon hayotini ona suti bilan boshlamagan, bolaligida ota-onasi, tarbiyachi yoki o'qituvchisining agressiv munosabatiga duch kelgan inson aslida. Bolaga qanday munosabatda bo'lsak, unga qanday tarbiya bersak, shunday kelajak yasaymiz. Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan juda muhim qonun loyihasini birinchi o'qishda tasdiqladik. Ikkinchi o'qishda qonunning ta'sirchanligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ko'pgina takliflarimiz bor.

2-sahifa



O'ZBEKISTON STRATEGIYASI | 2030

VAZIFALAR JIDDIY, SOVUQQONLIKKA O'RIN YO'Q

3-sahifa

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT




«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIIY-SIYOSIY GAZETASI

milliy tiklanish

№ 7 (1237) 2024-yil 28-fevral, chorshanba Adadi - 5 036

www.mtgazeta.uz | fb.com/milliytiklanish.gazetasi | t.me/milliy_tiklanish_gazetasi



ZOIR MIRZAYEVNING 300 MILLIONI

OG'RIQLI ILLATNI KESISHGA QARATILGANI BILAN HAM QIMMATLIDIR

Toshkent viloyati hokimi, Oliy Majlis Senati a'zosi Zoir Mirzayevning tashabbusi chindan ham oddiy odamlarning xohish va istaklariga mos bo'ldi, deyish mumkin. Chunki bu muammo tobora chigallashib, illatga aylanib borayotgan edi.

Nazarimda, bu muammoga viloyat hokimi emas, ko'proq parlament, ya'ni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari e'tibor qaratsalar maqsadga muvofiqroq bo'lardi. Chunki bu muammo butun mamlakat muammosiga aylanib bo'lgandi. Ustozlar kuyib-pishib dars o'tadilar, bola esa eshitmaydi. Ustozlar olam sirlari, insoniylik, tarix va kelajak haqida gapiradilar, ammo talabalar eshitishmaydi. Ularning xayoli, ko'zi, qo'llari telefonda. Bu borada ham Yevropa davlatlari bizdan oldinroq otlariga qamchi urdilar. Ko'plab davlatlar maktab va oliy ta'lim tizimida telefonlarni qat'iy ta'qiqladi. Biz esa kutayotgandik. Nihoyat bir viloyat yetakchisi ushbu tashabbusi bilan yana tilga tushdi. Alohida qayd etish joizki, Zoir Mirzayevning o'qituvchilari va o'quvchilari telefon ishlatishdan voz kechgan maktabga 300 million so'm pul mukofoti berishini ma'lum qilishi bu jarayonni tezlatishga xizmat qiladi, degan fikrdamiz. Bu haqda hokimning Chirchiq shahridagi maktab direktorlari bilan uchrashuvida, ya'ni ta'lim kengashi yig'ilishida ma'lum qilgani esa nur ustiga nur bo'ldi. Boshqacha aytganda, hokim Toshkent viloyatida «Telefonsiz maktab» tashabbusini ilgari surib, ushbu muammoga butun jamoatchilik e'tiborini ham qaratdi.



ZO'RAVONLIKKA UCHRAYOTGAN BOLA HAM BIZNING KELAJAGIMIZ

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi. Ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori Mansurbek Olloyorovning ma'ruzasi eshitildi. Uning ta'kidlashicha, loyiha bilan bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar, ularning vakolatlari aniq belgilanmoqda. Loyihada bolalarga nisbatan zo'ravonlik shakllari amaldagi uchtadan (jismaniy, jinsiy, ruhiy) oltitaga (g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling) oshirilmogda. Mazkur qonun loyihasi bilan ilk bor bolalarga ham himoya orderi berish taklif etilyapti. Bundan tashqari, loyihada zo'ravonlikdan himoya qilishda ota-onalarning ishtiroki va ularning majburiyatlari belgilanmoqda. Jumladan, ota-onalar bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishi, ularga g'amxo'rlik ko'rsatishi hamda zararli ta'sir ko'rsatuvchi axborotlardan himoya qilishi shartligi, bolalarni tarbiyalashda ularni jismoniy jazolash taqiqlanishi nazarda tutilyapti.

Davomi 2-sahifada

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

FARZAND TA'MINOTI VA TARBIIYASIDA OTANING O'RNI BO'LAK

4-sahifa



ASSALOM QOZOG'ISTON! ASSALOM O'ZBEK TILI!

5-sahifa

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR HAMDA MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGIGA DEPUTATLIK SO'ROVI YUBORISHGA QAROR QILDI 4s



TURING, HAZRATI KITOB KELMOQDA!

Yoxud «Nomer to'yib», To'ra Sulaymonning bitmayotgan uy-muzeyi va 33 milliardga qayta ta'mirlanayotgan bank haqida o'ylar

6s



BOLADAN QO'LINGNI TORT! YO'QSA...

4-sahifa

O'G'IRLANGAN BAXT 7s

2018-YILDA PREZIDENTIMIZNING TEGISHLI FARMONIGA MUVOFIQ O'TKAZILGAN BIR MARTALIK UMUMDAVLAT ANKVIYASI DOIRASIDA



MING NAFARDAN ORTIQ FUQAROLARNING o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasida tegishli ruxsatnomsiz qurilgan uy-joylariga nisbatan egalik huquqi e'tirof etilib, ularga kadastr hujjatlari rasmiylashtirib berilgan

2-sahifa

(Boshlanishi 1-sahifada)

ZO'RAVONLIKKA UCHRAYOTGAN BOLA HAM BIZNING KELAJAGIMIZ



Qonun loyihasida ta'lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik, intizomiy jazo chorasi sifatida zo'ravonlikning har qanday shakli, jismoniy jazo va boshqa shafqatsiz xatti-harakatlarni amalga oshirish yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaning qo'llanilishi qat'iy taqiqlanmoqda.

Qayd etish lozim, loyihada zo'ravonlik xavfi ostida bo'lgan bolalar toifalari (yetim, nazoratsiz, aqliy rivojlanishda nuqsoni bor, fohishalik, tilanchilik bilan shug'ullanayotgan bolalar) aniq belgilanmoqda. Bu vakolatli organlar zo'ravonlikdan jabrlangan, xavf ostida bo'lgan bolalarni aniqlash, hisobini yuritish hamda zo'ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirishiga yordam beradi. Xususan, zo'ravonlik qurbonining murojaati, jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari, OAV, Internet, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishning yakka tartibdagi chora-tadbirlarini qo'llash uchun asos bo'ladi. «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari Alisher Qodirov ushbu qonun loyihasiga munosabat bildirar ekan, so'nggi jarayonlar jiddiy bir kamchilgimizni ko'rsatib

qo'rganini, biz asl hal qilmoqchi bo'lgan masalamiz bolaning tarbiyasi bilan bog'liq ekanini yaqqol o'rta chiqqanligini ta'kidlad.

– Bugun zo'ravonlikka uchrayotgan bola bu mamlakatimiz kelajagi. Psixologiya va pedagogikada isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: zo'ravonlikka uchragan bola, albatta, zo'ravon bo'ladi. Chunki yoshligida agressiya ko'rgan odam, albatta, agressiv xulqqa ega bo'ladi, – dedi Alisher Qodirov. Bugun nima uchun yoshlarimiz orasida jinoyatchilik ko'payib ketyapti? Nima uchun farzandlarimizda ming yillik davlatchilik hamda tarbiyaviy qadriyatlarimiz bilan bog'liq bo'lgan ustunlarimiz bo'lishiga qaramasdan, agressiv xulq paydo bo'lmoqda? Nima uchun ulardagi ilm, ma'rifatga bo'lgan ishtiyoq ajdodlarimizda bo'lgani kabi emas? Bu savollarga aslida biz mana shu yerda javob topishimiz kerak.

Biz bolaga nafaqat to'g'ri tarbiya bera olmaymiz, balki unga zo'ravonlik ko'rsataymiz. Oilada bolaning fikri umuman hisobga olinmayapti. Bog'chada bola erkin gapira olmayapti. Ta'lim muassasalaridagi ahvolni ko'ryapsiz: ayrim o'qituvchilarning qo'pol munosabati bugun bolaga nisbatan mana shu zo'ravon fe'l-atvorni jamiyatimizning ajralmas

bir qismi qilib qo'yimoqda va bu biz uchun davlatchilik, milliy taraqqiyot hamda mamlakatimiz kelajagini hal qilish masalasi ekanligini unutmashimiz lozim.

O'zbekistonimizning qudratli davlat bo'lishini xohlasak bugun bolalarimizga nisbatan har qanday zo'ravonlikka barham berishimiz lozim. Bolalarimizni to'g'ri tarbiya qilishimiz kerak. Chunki bugungi bola O'zbekistonni kelajagi hisoblanadi. Davlat rahbari hududlarda bo'lgan paytlarida quyidagi mazmundagi fikrni aytgan edilar: bugun biz O'zbekistonning rivojlanishi uchun iqtisodiy resurslar qancha kerak bo'lsa topamiz. Bugungi O'zbekiston avvalgi O'zbekiston emas. Biz dunyodagi katta-katta moliyaviy institutlarning hurmatiga erishdik. Biz nima so'rasak berishyapti. Iqtisodiy rivojlanishimiz uchun sharoitimiz bor. Lekin shuncha amalga oshirilgan ishlarni ertaga qadrini bilmaydigan kelajakni yaratib qo'ysak, farzandlarimizni to'g'ri tarbiya qila olmasak, shuncha qilgan mehnatlarimiz nimaga olib keladi.

Aynan shu fikrda biz eng katta muammolaridan biri sifatida bolalarimizga bugun yetarli darajada mehr-muruvvat ko'rsatilmayotgani, aksincha, zo'ravonlikning rivojlanib ketayotganini ko'rayapmiz. Alisher Qodirov so'zining yakunida barcha deputatlarni bu

qonunga jiddiy yondashishga, ikkinchi o'qishda uni takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini berishga chaqirdi. – Ayniqsa, ta'lim-tarbiya masalalarini ustuvor hisoblagan «Milliy tiklanish» partiyasi fraksiyasi, albatta bu qonunga yanada e'tibor bilan yondashadi va bugungi kunda jamiyatimizning eng katta muammolaridan birini bartaraf qilish uchun zarur bo'lgan qonun sifatida o'z takliflarini beradi, – dedi fraksiya rahbari. Qizg'in muhokamalardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda konseptual jihatdan bir ovozdan qabul qilindi.

Yalpi majlisda «O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan imoratlar bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida»gi qonun loyihasi ham birinchi o'qishda muhokama qilindi. Adliya vaziri o'rinbosari Alisher Karimovning ta'kidlashicha, 2018-yilda Prezidentimizning tegishli farmoniga muvofiq o'tkazilgan bir martalik umum davlat aksiyasi doirasida 621 ming nafardan ortiq fuqarolarning o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasida tegishli ruxsatnomsiz qurilgan uy-joylariga nisbatan egalik huquqi e'tirof etilib, ularga kadastr hujjatlari rasmiylashtirib berilgan edi. Shunga qaramasdan, bugungi kunga qadar yana 3

milliondan ortiq fuqaroning ruxsatnomsiz qurilgan uy-joylariga nisbatan egalikni belgilash masalasi qonuniy yechim topmagan. Bu fuqarolar hayotida turli ijtimoiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu qonun loyihasi bilan yer

aytishicha, hududlarda saylovchilar bilan uchrashuvlarda eng ko'p ushbu masala ko'tarilar edi. Birgina Farg'ona shahridagi 38 ta mahallada 850 xonadon uzoq yillardan buyon ana shunday muammo bilan yashab kelmoqda. Ularning aksariyatida kadastr hujjati bor, lekin mulk huquqiga

”

BUGUNGI KUNGA QADAR YANA 3 MILLIONDAN ORTIQ FUQARONING RUXSATNOMASIZ QURILGAN UY-JOYLARIGA NISBATAN EGALIKNI BELGILASH MASALASI QONUNIY YECHIM TOPMAGAN. BU FUQAROLAR HAYOTIDA TURLI IJTIMOIY VA HUQUQIY MUAMMOLARNI KELTIRIB CHIQAQMOQDA.

uchastkasi va unda qurilgan imoratga bo'lgan huquqni, shuningdek, yakka tartibdagi uy-joy qurilgan, o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga ijara huquqini e'tirof etish tartibi belgilanmoqda. Shuningdek, ortiqcha egallangan yer uchastkasiga, bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylar egallangan yer uchastkasiga ijara huquqini e'tirof etish asoslari nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, ijara huquqi e'tirof etilgan yer uchastkasining yer fondi toifasini o'zgartirish, ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ijara huquqi e'tirof etilgan yer uchastkasini xususiy lashtirish tartiblari o'z aksini topmoqda. Loyihada o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlar e'tirof etilgan taqdirda, yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallab olingan shaxslar ma'muriy javobgarlikdan ozod etilishi ko'zda tutilmoqda. Deputatlar qayd etishlaricha, qonun loyihasining qabul qilinishi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalariga nisbatan ijara huquqi hamda ularda qurilgan uy-joy boshqa bino va inshoot yoki ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqi rasmiylashtirishi uchun huquqiy asoslar yaratilishiga xizmat qiladi.

«Milliy tiklanish» fraksiyasi a'zosi Umid Jabborov ushbu qonun loyihasiga munosabat bildirib, qonun juda ham halqchil ekanini ta'kidlad. Deputatning

ega emas. Yoki umuman hujjati yo'q. Endilikda ushbu qonun loyihasi bilan xalqimizning eng katta muammosiga yechim topiladi. Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov ham bu o'ta muhim qonun ekanini e'tirof etib, tegishli qo'mitaga ikkinchi o'qishda kerak bo'lsa qonun loyihasi nomini o'zgartirish taklifini berdi. Yuridik jihatdan qonun nomi shartli ravishda to'g'ri bo'lishi mumkin, lekin aslida bunday emas. Ma'lumki, qishloq joylarda bunday yerlar juda ko'p. Bu yerlar ota-bobosidan qolgan va hozirda farzandlari yashab kelyapti. Lekin davlat idoralarning e'tiborsizligi sabab, o'sha vaqtlarda hujjat qilolmagan, kadastrdan o'tmagan. Ammo odamlar o'z yeriga soliq va boshqa to'lovlarni muntazam to'lab kelmoqda.

– Buni «o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini» desak qanchalik to'g'ri bo'ladi. Bu bilan kimningdir nafosiyatiga tegib qo'ymaymizmi, – dedi Spiker. To'g'ri, bir davrlar bo'ldiki, aholi, yoshlar ko'paydi, yangi oilalar qurildi. Natijada odamlar dehqon, bog'-uzumchilik xo'jaliklarida ruxsatsiz uy-joy qurib olishga majbur bo'ldi va buni o'zboshimchalik desak bo'lar. Prezidentimiz sa'y-harakati bilan 2018-yilda bu bo'yicha katta amnistiya e'lon qilindi va bu bilan juda ko'pchilik uy-joylarini rasmiylashtirib olgan bo'lsa-da, hamon hujjatsiz uylar ko'p. Ushbu qonun bilan fuqarolarimizga bu borada juda katta imkoniyat berilmoqda.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

✓ Partiya

O'BEKISTON 2030 STRATEGIYASI



Hamdam NIYOZOV,
partiya Markaziy kengashi
bo'lim boshlig'i

ANIQ MAQSAD VA VAZIFALARGA MO'LLJALLANGAN YIL DASTURI

Prezidentimiz tomonidan «O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmoni imzolandi. Unda jamoatchilik muhokamalarida davomida ilgari surilgan tashabbus va fikr-mulohazalar asosida 100 ga yaqin konseptual hamda mingdan ziyod aniqlik kirituvchi va tahririy takliflar o'z aksini topgan. «Milliy tiklanish»chilar ham muhokamalarda dasturiy maqsad vazifalaridan kelib chiqqan holda o'z takliflari bilan ishtirok etdilar. Ayniqsa, partiya uchun eng ustuvor yo'nalish hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash masalasi Davlat dasturining birinchi va

” O'QITUVCHILARNI YANGI METODIKALAR BO'YICHA MALAKASINI OSHIRISH, 100 NAFAR PEDAGOGNI XORIJGA «EL-YURT UMIDI» JAMG'ARMASI KO'MAGIDA YUBORISHNI KO'ZDA TUTUVCHI TAKLIFLARNING DAVLAT DASTURIDA ARS ETGANLIGI E'TIBORGA MOLIKDIR.

eng asosiy maqsadlari sifatida belgilangan bo'lib, bu borada aniq chora-tadbirlar ko'zda tutiladi. Shu bilan birga partiya fraksiyasi tomonidan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash, shuningdek, o'qituvchilarni yangi metodikalar bo'yicha malakasini oshirish, 100 nafar pedagogni xorijga «El-yurt umidi» jamg'armasi ko'magida yuborishni ko'zda tutuvchi takliflarning Davlat dasturida aks etganligi e'tiborga molikdir. Pedagoglarni ishga qabul qilish jarayonini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish, ularning darslarni o'z vaqtida va sifatli o'tishini qat'iy ta'minlashga qaratilgan choralarning belgilanishi ham ayni muddao bo'ldi. Xulosa qilib aytganda, endigi vazifa partiya faollari hamda barcha darajadagi deputatlik korpusi vakillari orqali ushbu hujjatda ilgari surilgan hayotiy tashabbuslarning ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etishdir.

VAZIFA
«Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga mo'ljallangan

SAYLOVOLDI DASTURI

NATIJA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

QARORI PQ-19-son
21.01.2024

“O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”

Mamlakatning Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi an'anaviy turizm markazlaridan boshqa hududlarida ham ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, turizmning yangi turlarini rivojlantirish choralari ko'rish.

Hududning mavjud tabiiy resurslaridan kelib chiqqan holda turistik so'qmoqlar, selfi zona va piknik zonalar, manzarali tomosha qilish maydonchalari va hayvonlarni maydonchalar kuzatish imkonini beruvchi fototurlar tashkil qilish hududlarini belgilash.

O'BEKISTON STRATEGIYASI 2030



Elyor KELDİYOROV, Yoshlar parlamenti a'zosi

YOSHLAR XORIJDAMALAKA OSHIRADI

Yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug'ullanishga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida oilaviy tadbirkorlikka ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirish belgilab qo'yildi. 2024-yil 1-iyundan boshlab esa «Yosh tadbirkor» tanlovlarini o'tkazish yo'lga qo'yiladigan bo'ldi.



BOLADAN

QO'LINGNI TORTIYO'QSA...

2023-yilning kuzida «Bolalarni zo'rvonliklarning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi qonun loyihasi Parlament quyi palatasida uzoq muhokama qilingan edi. Joriy yilning 27-fevral kuni bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida ushbu qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

27 foiz bola muntazam ravishda kamsitilish obyektiga aylangan. Yana bir ma'lumotda dunyo bo'ylab 13-15 yoshdagi o'quvchilarning 42 foizi o'zlari bulling bilan shug'ullanganini, ulardan 20 foizi buni muntazam bajarганиni tan olgan. Taxminan 50 foiz o'quvchi esa maktabda va uning atrofida tengdoshlarining zo'rvonligiga duchor bo'lganligini aytgan.

2023-YIL BOSHIDA YUNISEFNING TURLI DAVLATLARDA OLIB BORGAN 80 GA YAQIN TADQIQOTLARIGA KO'RA, MAKTAB O'QUVCHILARINING 35 FOIZI DOIMIY RAVISHDA TAZYIQ VA ZO'RVONLIKKA UCHRASHI ANIQLANGAN.

2023 yilning 9 oyida 166 nafar bolalar o'z qarindoshlari tomonidan zo'rvonlikka uchragan, shu vaqt davomida voyaga yetmaganlarga nisbatan 1240 ta zo'rvonlik holati qayd etilgan, shundan 417 tasi jinsiy zo'rvonlik ekanligi ko'plab bolalar nafaqat himoya orderiga, balki mehr-e'tiborga ham muhtojligini ko'rsatyapti.

Islohot

O'QITUVCHILARNI ISHGA QABUL QILISHDA SHAFFOF TIZIM JORIY ETILISHI KERAK



Ma'lumki, ta'lim Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tanlab olindi. Bugun mamlakatimizda 10 mingdan ortiq maktablar hamda 200 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, har yili maktablarda 8 ming o'qituvchi ishga qabul qilinadi, yangi maktablar hisobiga esa yana shuncha o'qituvchiga ehtiyoj paydo bo'ladi.

talabdan kelib chiqib, maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga Singapur va Birlashgan Arab Amirliqi tajribasi asosida o'qituvchilarga kasbiy sertifikat berish tartibini ishlab chiqish topshirildi.

ta'limi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari tomonidan pedagoglarni ishga qabul qilish bo'yicha yagona shaffof onlayn platforma joriy etilishi zarur.

qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundagina malakali, chuqur kasbiy bilim va salohiyatga ega bo'lgan pedagoglar tarkibi shakllanadi, ular o'rtasida esa sog'lom raqobat vujudga keladi.

Nigoh

FARZAND TA'MINOTI VA TARBIYASIDA OTANING O'RNI BO'LAK

Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlari oldida turgan muhim vazifalardan biri voyaga yetmaganlarning huquq-manfaatlari himoya qilish, sud qaroriga asosan farzandlar moddiy ta'minotini ta'minlashga qaratilgan hujjatlar ijrosini izchil ta'minlashdir.


hududiy bo'limlari tomonidan kundalik ishlar olib borilmoqda. Tahlillarga ko'ra, ish yurituvda qariyb 25 mingdan ziyod aliment bilan bog'liq hujjatlar mavjud. Shahar va tumanlardagi sektorlar tomonidan bu boradagi kunlik undiruvlarning tahlil etilishi kutilgan samarani bermoqda.

qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bilan «Aliment to'lovchilari» davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etilgan edi.

etilmogda. Jumladan, aliment to'lashdan qasddan bosh tortayotgan 1077 nafar qarzdorga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 474-moddasiga muvofiq ma'muriy qamoq jazosi va jarima tayinlangan.



Oqilxon DADABOYEV, O'ZA muxbiri



ВЭРКИН
Вохидов

Ўзбегим

Тарихингдир минг асрлар
Ичра пинҳон, ўзбегим,
Сенга тенгдош Помиру
Оқсоч Тиёншон, ўзбегим.

Сўйласин Афросиёбу
Сўйласин Ўрхун хаги,
Кўхна тарих шодасида
Битта маржон, ўзбегим.

Ал Беруний, Ал Хоразмий,
Ал Фороб авлодидан,
Асли насли балки Ўзлук,
Балки Тархон, ўзбегим.

Ўтдилар шўрлик бошингдан
Ўйнатиб шамширларин
Неча ҳоқон, неча султон,
Неча минг хон, ўзбегим.

Тоғларинг тегрангда гўё
Бўғма аждар бўлди-ю,
Икки дарё — икки чашминг,
Чашми гирён, ўзбегим.

Қайсари Рум найзасидан
Бағрида доғ узра доғ,
Чингизу Боту тигига
Кўкси қалқон, ўзбегим.

Ёғди тўрт ёндин асрлар
Бошингга тийри камон,
Умри курбон, мулки торож,
Юрти вайрон, ўзбегим.

Давр зулмига ва лекин
Бир умр бош эгмадинг,
Сен — Муқанна, сарбадор — сен,
Эркесвар қон, ўзбегим.

Сен на зардушт, сен на буддий,
Сенга на оташ, санам,
Одамийлик дини бирла
Тоза имон, ўзбегим.

Маърифатнинг шўласига
Талпиниб зулмат аро,
Кўзларингдан оқди тунлар
Кавкабистон, ўзбегим.

Тузди-ю Мирзо Улугбек
Кўрагоний жадвалин,
Сирли осмон тоқига илк —
Кўйди нарвон ўзбегим.

Мир Алишер наърасига
Акс-садо берди жаҳон,
Шеърият мулкида бўлди
Шоҳу султон ўзбегим.

Илму шеърда шоҳу султон,
Лек тақдирига қул,
Ўз элида чекди гурбат,
Зору нолон ўзбегим.

Мирзо Бобур — сен, фиғонинг
Солди олам узра ўт,
Шоҳ Машраб қони сенда
Урди туген, ўзбегим.

Шеъриятнинг гулшанида
Сўлди махзун Нодира,
Сийм танни ювди кўз ёш,
Кўмди армон, ўзбегим.

Йиғлади фурқатда Фурқат
Хам муқимликда Муқийм,
Нолишингдан Ҳинду Афғон
Қилди афғон, ўзбегим.

Тарихинг битмакка, халким,
Мингта Фирдавсий керак,
Чунки бир бор чеккан оҳинг
Мингта дoston, ўзбегим.

Ортда қолди кўхна тарих,
Ортда қолди дард, ситам,
Кетди ваҳминг, битди захминг,
Топди дармон, ўзбегим.

Бўлди осмонинг чароғон
Толе хуршиди билан,
Бўлди асрий тийра шоминг
Шуълаафшон, ўзбегим.

Мен Ватанни боғ деб айтсам,
Сенсан унда битта гул.
Мен Ватанни кўз деб айтсам,
Битта мужгон ўзбегим.

Фахр этарман, она халким,
Кўкрагимни тоғ қилиб,
Кўкрагида тоғ кўтарган
Танти дехқон ўзбегим.

Ўзбегим деб кенг жаҳонга
Не учун мадҳ этмайин!
Ўзлим билмоққа даврим
Берди имкон, ўзбегим.

Мен буюк юрт ўғлидурман,
Мен башар фарзандиман,
Лекин аввал сенга бўлсам
Содиқ ўғлон, ўзбегим.

Менга Пушкин бир жаҳону
Менга Байрон бир жаҳон,
Лек Навойдек бобом бор,
Кўксим осмон, ўзбегим.

Қайга бормай, бошда дўппим,
Ғоз юрарман гердайиб,
Олам узра номи кетган
Ўзбекистон, ўзбегим.

Бу қасидам сенга, халқим,
Оқ суту туз хурмати,
Эркин ўғлингман, қабул эт,
Ўзбегим, жон ўзбегим.

ДИККАТ! ТАНЛОВ!

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ИЖТИМОИЙ-СИЙОСИЙ ГАЗЕТАСИ НОҚОРИ СИНОФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОҚ
БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ УРТАСИДА

«ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»

МАВЗУСИДА ИНШОЛАР ТАНЛОВИНИ ЎТКАЗАДИ.

Ғолиб
20 **МИЛЛИОН**

сўм пул мукофоти билан
тақдирланади.

ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҲАМДА
ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА
2024 йилнинг сентябрь ойида –
Ўқитувчи ва мураббийлар
байрами арафасида
топширилади.

Мурожаат учун: (90) 245-18-10

ШУНИНГДЕК, ТАНЛОВДА 30 НАФАР ҚўШИМЧА НОМИНАЦИЯЛАР
БЎЙИЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНАДИ.

«МИЛЛИЙ
ТИКЛАНИШ»
ДЕМОКРАТИК
ПАРТИЯСИНИНГ
ИЖТИМОЙ-
СИЙОСИЙ
ГАЗЕТАСИ

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abror PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Ilhom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJONOVA,
Minhojiddin MIRZO,
Nuriyman ABULXASAN,

Odiljon TOJIYEV,
Olim O'SAROV,
Otabek JIYANBOYEV,
Ozodbek NAZARBEKOV,
Ortiqali QOZOQOV,
To'lqin TESHABOYEV,
Feruza MUHAMMEDJANOVA,
Xurshid DO'STMUHAMMAD,
Sherzodxon QUDRATXO'JA,
Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT
MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxzoda
ko'chasi, 1 A-uy,
Gazeta tahririyat
kompyuter markazida
terildi va sahilalandi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai
nazaridan farq qilishi
mumkin.

Gazetada Internet
ma'lumotlari
va suratlaridan
foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy
e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga
qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'afor OMONBOYEV,
Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Korxonaning manzili: «Buyuk Turo» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 036.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 221
Bosishga topshirish vaqti 1:45.
Topshirildi 02:10

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456